

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti



FAN

YERDAN FOYDALANISH EKOLOGIYASI

MAVZU
02

ATROF –MUHIT MUHOFAZASI



MUQUMOV ABDUG'ANI
MURATOVICH



YERDAN FOYDALANISH
KAFEDRASI



2-mavzu: ATROF -MUHIT. INSON VA TABIAT O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA‘SIR

REJA:

- 1. Atrof muhit, tushuncha va mavjudlik sharoitlari**
- 2. Atrof muhit muhofazasi**
- 3. O‘zbekiston respublikasining asosiy yer-ekologik qonunchiligi**
- 4. Agroekotizimlarning rivojlanish qonuniyatlari**

O'tilgan mavzularni takrorlash uchun nazorat savollari

1. Atrof muhit tushunchasi nimani anglatadi?
2. Atrof muhitni tashkil etuvchi elementlarni bilasiz?
3. Atrof-muhit qanday omillardan tashkil topgan?
4. Tabiiy resurslar deb qanday resurslarga aytiladi?
5. Qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan resurslarning mohiyatini tushuntiring.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI



Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, keng miqyosdagi ekologik inqirozga yo'l qo'ymaslik insoniyat oldidagi dolzarb vazifalarga aylangan. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi. Ularga rioya qilmaslik ertami, kechmi, albatta ekologik halokatga olib keladi. Tabiatda turlarning rivoji zanjir kabi bir-biri bilan chambarchas bog'langan, ular o'zaro yaxlit ekotizimni tashkil etadi. Hattoki, bir giyoh turining yo'qolishi ham yashil olam muvozanati buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Mamlakatimizda tabiiy resurslarni boshqarish va ekologik muamolarni bartaraf etish borasida sayi harakatlarga keladigan bo'lsak, qoniqarli darajada deya olamiz. Xususan ekoturizm sohasi. **Zomin tog' landshafti, baxmal tumani ekologik muhiti, Guliston tumanidagi ekomaskan, Shovot turistik qishlog'i, Samarqand sohilbo'yi dam olish maskanlari** va so'nggi yillardagi sayi harakatlar, katta mehnat natijasida tashkil qilingan "**Orolbo'yi ekologik tizimi**" bunga yaqqol namuna bo'la oladi. Ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo'nalishlari Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, Vazirlar mahkamasi, turli nodavlat tashkilotlari hamda davlat tomonidan qabul qilingan Atrof - muhitni muhofazasi, gigienik, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy harakat rejalari va strategiyalarida o'z aksini topgan. Har bir viloyat, har bir shahar, har bir qishloqning o'z ekotizimi tashkillashtirilgan, bu quvonarli hol. O'simlik dunyosi boy va rang barang, hayvonlarni muhofaza qilish uchun qo'riqxonalar tashkil qilingan. qo'riqxonalarda har bir tabiiy mintaq, balandlik mintaqasida tabiiy landshaftlar namunasi va landshaft elementlari, masalan, xarakterli manzara, relef shakllari, tabiat yodgorliklari, ayrim noyob turlar va hayvonlar saqlanib qolinadi.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, keng miqyosdagi ekologik inqirozga yo'l qo'ymaslik insoniyat oldidagi dolzarb vazifalarga aylangan. Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi. Ularga rioya qilmaslik ertami, kechmi, albatta ekologik halokatga olib keladi. Tabiatda turlarning rivoji zanjir kabi bir-biri bilan chambarchas bog'langan, ular o'zaro yaxlit ekotizimni tashkil etadi. Hattoki, bir giyoh turining yo'qolishi ham yashil olam muvozanati bo'zilishiga sabab bo'lishi mumkin. Asrlar davomida inson o'zining taraqqiyot jarayoni bilan birga ekologiya inqirozi jarayonini tezlashtirdi.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Bugun jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb e'tirof etmoqda. Afsuski, dunyo bo'yicha kuzatilayotgan iqlim o'zgarishi atrof-muhitning turli sohalariga salbiy ta'sir yetkaziyapti. Dunyo mamlakatlari uning oldini olish uchun qonuniy va amaliy chora-tadbirlarni ko'rmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham bu borada tizimli reja asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Shu o'rinda, avvalo, Konstitutsiyamizning **50-moddasida** "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar", hamda **55-moddasida** "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" deya belgilab qo'yilganini ta'kidlab o'tish o'rinlidir

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Borliqni asrash, hayvonot va nabotot olamiga bo'lgan g'amxo'rlik, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish zarurligini bilib turib, unga rioya etmaslikni qanday izohlash mumkin? Iste'moldan ortiqcha suv jumraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turarjoylarni ozoda saqlash shunchalik mushkulmi? Sanab o'tganlarimiz zohiran oddiy bo'lib ko'rinishi mumkin, botinan esa yirik muammolarning oldini oladi. Zero, xalqimizda atrof-muhitni asrash, muhofaza qilishdek qadriyatlar mujassam.

Aslida qadimdan ekologiya masalasi doimo dolzarb bo'lgan. Bizning ajdodlarimiz ham tabiat in'omlariga hurmat bilan yondashib, ularni asrab-avaylab, pokiza saqlashga intilgan. O'zimizdan qiyos qiladigan bo'lsak, **“Chiqindini ariqqa tashlama, suvga tupurma, hovli va ko'chalarga axlat tashlama”**, kabi o'gitlar ota-onalarimizning doimiy tarbiya amollari edi. Afsuski, hozirda tabiatga nisbatan bunday munosabat yosh avlod vakillari unutilib bormoqda

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Chunki aholining ko'cha-ko'y, atrof-muhitga munosabati shunday taassurot uyg'otadi. Toza-tartibli tutish birgina xonadonlar emas, qishlog'-u shaharlarimizga ham tegishli emasmi? Taassufki, ayniqsa, shaharlarda ko'p qavatli uylar, yo'llar chetida turli xil chiqindilar sochilib yotadi. Ayrimlar to'plangan maishiy xazonlarni, chiqindilarni yondirib, ulardan osongina qutilmoqchi bo'ladi. Vaholanki, bunda inson hayotiga, iqlim sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab moddalar ajralib chiqadi, havoni zaharlaydi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilgunga qadar tabiiy atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan qonun va me'yoriy hujjatlarga sobiq ittifoq manfaatlar doirasida amal qilinar edi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha boshqaruv va nazorat ishlari bir necha tashkilotlar vakolatiga yuklatilgan bo'lib, tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bir tizimga birlashmagan, aksariyat hollarda bir-birlari funksiyalarini takrorlashar, kuch va mablag'lardan foydalanish tarqoq holda edi. Natijada tabiatni muhofaza qilish ishlarining samaradorligi pasayib ketdi.

Atrof - muhitni muhofaza qilish bir necha yo'nalishlarga ega bo'lib, boshqa fanlar yutuqlarini qo'llagan holda o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini hal qiladi:^

1.Falsafiy yo'nalish- tabiat bilan jamiyatning bir butunligiga, undan foydalanilish va himoya qilish birligiga asoslangan

2.Tarixiy yo'nalish - biosfera va uning qismlarini mavjudlik qonuniyatlarini o'rganish zarurligiga asoslangan

3.Ekologik yunalish - insonlarni tabiat bilan biologik jihatdan bog'lik ekanligiga asoslangan

Atrof - muhitni muhofaza qilish bir necha yo'nalishlarga ega bo'lib, boshqa fanlar yutuqlarini qo'llagan holda o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini hal qiladi: ^

4. Texnik-iqtisodiy yo'nalish - tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish zarurligiga asoslangan

5. Sotsial-siyosiy yo'nalish - atrof - muhitni muhofaza qilish muammosini butun insoniyat miqyosida hal qilinishi zarur ekanligiga asoslanadi

6. Yuridik yo'nalish - insonlarning tabiatga ko'rsatayotgan ta'sirini chegaralovchi va jazolanishi ta'minlovchi huquqiy aktlarni ishlab chikish va uni bajarilishini talab qilinishiga asoslangan

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Xalqimizda “**Buloq suvi qurimaguncha inson uning qadriga yetmaydi**” degan maqol bor. Asrlar davomida inson o‘zining taraqqiyot jarayoni bilan birga ekologiya inqirozi jarayonini tezlashtirdi. Bugun jahon hamjamiyati iqlim_o‘zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb e’tirof etmoqda. Afsuski, dunyo bo‘yicha kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishi atrof-muhitning turli sohalariga salbiy ta’sir yetkazyapti. Dunyo mamlakatlari uning oldini olish uchun qonuniy va amaliy chora-tadbirlarni ko‘rmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham bu borada tizimli reja asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik holatni yaxshilashni ta’minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

2021-yil 30-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “**Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik — 2030**” (P4G) ikkinchi xalqaro sammitidagi nutqida - **Yashil iqtisodiy tiklanish**” sohasidagi hamkorlikning muhim yo'nalishlari bo'yicha konseptual takliflarni ilgari surdi. Iqlim o'zgarishlari dunyoning barcha davlatlari kabi Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham yaqqol sezilayotganligi, mintaqadagi asosiy daryolar havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotganligi, bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanayotganligi kabi ekologik muammolar nafaqat mintaqa mamlakatlarini, shuningdek, dunyo hamjamiyatini ham jiddiy xavotirga solayotgani ta'kidlab o'tdi.

Taassufki, ayrimlar atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologiyani asrashga nisbatan mas'uliyatni his qilmayapti. 2021 yilning 24-avgust kuni Prezident raisligida o'tgan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida bu haqida tanqidiy fikrlar bildirib o'tildi. Daraxtlarni kesishga moratoriy e'lon qilingan bo'lsa ham ayrim shaxslar tomonidan bu qoidalarga rioya etilmayotgani keskin tanqid qilindi.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

“Daraxtlarni kesishga moratoriy 2024-yilga qadar uzaytiriladi va javobgarlik keskin kuchaytiriladi. Shuningdek, qayd qilinishicha, oʻtgan 6 oyda moratoriy davrida 316 ming dona qimmatbaho daraxtlar asrab qolingan. Biroq, shunga qaramasdan, oʻtgan davrda 2,8 mingta qimmatbaho va 2 mingdan ziyod kam qiymatli daraxtlar noqonuniy kesilgan”, deya taʼkidlandi.

Yigʻilish yakunlariga koʻra, Toshkent shahri va viloyat markazlarida ekologiya politsiyasi tashkil etilib, mazkur tuzilma zimmasiga ekologiya sohasidagi qonunbuzarliklarga qarshi profilaktika vazifalari yuklatildi. Shuningdek, ekologiya sohasida qoʻllaniladigan jarimalar miqdori 5 baravar, yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya miqdori 2 baravar oshirilishi belgilandi.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Odamzodning atrof-muhitga salbiy ta'siri muqaddas dinimizda ham keskin qoralanadi. Zero, Alloh taolo olamni ajoyib aniqlik, o'zaro bog'liq holda hamda undagi mavjudotlarning xususiyatlari, sifatlarini nihoyatda go'zal va hikmatli qilib yaratgan. Har bitta mavjudotning Yaratgan egam tarafidan o'ziga xos zamon va makonda yaratilishi belgilab qo'yilgan. Bu haqda Qur'oni karimda juda ko'p oyatlar nozil etilgan bo'lib, jumladan, Alloh taolo shunday marhamat qiladi:

“Albatta, Biz har bir narsani o'lchov bilan yaratdik” (Qamar surasi, 49-oyat). Shuningdek, **“Furqon”** surasining 2-oyatida **“...har bir narsani o'lchov ila o'lchab yaratgan Zotdir”**, deyiladi. Ya'niki, dunyodagi har bir narsa: suv ham, yer ham, havo ham, tog' ham, hayvonot ham, nabotot ham Alloh taolo tomonidan o'lchov bilan va bir-biriga bog'liq qilib yaratilgan

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Shu bilan birga, Alloh taolo insonni dunyoni asrash, U Zotning ne'matlaridan manfaat olish, ularni halok etmaslik, yaxshilik yo'lida foydalanish va yomonlikka ishlatmaslikka buyuradi. "A'rof" surasining 56-oyatida "Va isloh qilingandan keyin yer yuzida fasod qilmang...", deb buyuriladi.

Ya'ni, odamzod esa mazkur ne'matlarni qadrlab, asrab-avaylab, ularga zarar yetkazmay, tabiatdagi muvozanat va jipslikni buzmasdan ulardan foydalanishi darkor. Buning uchun esa fuqarolarimizda ekologik madaniyat bo'lishi kerak.

Borliqni asrash, hayvonot va nabotot olamiga bo'lgan g'amxo'rlik, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish zarurligini bilib turib, unga rioya etmaslikni qanday izohlash mumkin? Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turarjoylarni ozoda saqlash shunchalik mushkulmi? Sanab o'tganlarimiz zohiran oddiy bo'lib ko'rinishi mumkin, botinan esa yirik muammolarning oldini oladi. Zero, xalqimizda atrof-muhitni asrash, muhofaza qilishdek qadriyatlar mujassam.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Aslida qadimdan **atrof muhit muhofazasi** masalasi dolzarb bo'lgan. Ajdodlarimiz ham tabiat in'omlariga hurmat bilan yondashib, ularni asrab-avaylab, pokiza saqlashga intilgan. O'zimizdan qiyos qiladigan bo'lsak, ko'plab o'g'itlar ota-onalarimizning doimiy tarbiya amollari edi. Afsuski, hozirda tabiatga nisbatan bunday munosabat unutilgandek.

Chunki aholining ko'cha-ko'y, atrof-muhitga munosabati shunday taassurot uyg'otadi. **Toza-tartibli tutish birgina xonadonlar emas, qishlog'-u shaharlarimizga ham tegishli emasmi?** Taassufki, ayniqsa, shaharlarda ko'p qavatli uylar, yo'llar chetida turli xil chiqindilar sochilib yotadi. Ayrimlar to'plangan maishiy xazonlarni, chiqindilarni yondirib, ulardan osongina qutilmoqchi bo'ladi. Vaholanki, bunda inson hayotiga, iqlim sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab moddalar ajralib chiqadi, havoni zaharlaydi.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Hozirgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5—4,7 milliard yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni **Quyosh nuri, Yerning massasi, gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining** vujudga kelishi va o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ta'sirida tarkib topgan. Tabiiy muhitning holati o'zaro ta'sir etib turuvchi ko'p omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog'liq. Chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya'ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi, oqimlari va boshqalarga; o'simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog' jinslari, relyef, tuproqlarga bog'liq. Bu tabiiy omillarning birontasida o'zgarish ro'y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ba'zan, tabiatning biror komponentiga ko'rsatilgan arzimagan ta'sir hech kutilmagan katta o'zgarishlarga, xususan, xavfli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiyaning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi. Yerning havo qobig'idagi hozirgi gazlar tarkibi, miqdori, ayrim foydali qazilmalari, mas., ohaktosh, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mirning hosil bo'lishi, tuproq qoplaminig tarkib topishi, rivojlanishi organizmlarning hayot faoliyati natijasidir. Organik dunyoning tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siri biologik evolyutsiya jarayonida yangi turlarning paydo bo'lishi, raqib turlar sonining ko'payishi yoki kamayishi va atrof muhitning o'zgarishi natijasida o'zgaradi.

Yerda odamning paydo bo'lishi organik dunyo bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Inson tabiatga mehnat qurollari vositasida yaylovlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida ta'sir ko'rsatadi.

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Natijada inson yashay oladigan hudud kengayadi, foydalaniladigan tabiiy elementlar soni va hajmi ortadi, binobarin, insonning tabiatga tazyiqi sifat jihatidan ham, ko'lam jihatidan ham ko'payadi. Inson o'zi yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun tabiiy muhitdan tashqari yana sun'iy muhitni ham bunyod etadi. Macalan, shaharlar, turar joy binolari, bog'lar, suv omborlari, yo'llar va boshqa ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiy etishi bilan, tabiiy boyliklarning ahamiyati, ulardan foydalaniladigan sohalar, ularni ishlatish shakllari ham o'zgarib boradi. Qadimda bir necha xil kimyoviy elementlardan foydalanilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda mavjud barcha elementlardan foydalaniladi. Shu bilan birga ko'pchilik foydali qazilmalar tobora ko'proq qazib chiqarilmoqda. Insonning tabiatga ta'siri kuchayishidan, antropogen landshaftlar ko'paymoqda. Hayvonot va o'simlik olamidan rejasiz foydalanish yoki inson faoliyati bilan bog'liq boshqa sabablar tufayli 16-asrning oxirlaridan 20-asrning 70yillarigacha umurtqali hayvonlarning 250 turi va kichik turlari butkul yo'qolib ketdi. 80yillardan boshlab xar yili o'rtacha 1 ta hayvon turi va 50 ga yaqin o'simlik turi yo'qolib bormoqda

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Qush va sut emizuvchilarning 1000 dan ortiq turi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Yil davomida 1 milliard tonna yoqilg'i yoqiladi, atmosferaga yuzlab million tonna azot oksidi, oltingugurt, uglerod, qurum, chang va boshqa chiqariladi. Tuproq va suvlar sanoat va maishiy chiqindilar (bir necha milliard tonna), neft mahsulotlari (bir necha million tonna), mineral o'g'itlar (yuz million tonnaga yaqin), og'ir metallar, radiaktiv chiqindilar bilan ifloslanadi.

Inson tabiiy sharoit va boyliklardan ko'p maqsadlarda foydalanadi. Bu esa ayni paytda, tabiatni tegishlicha muhofaza qilishni ham taqozo etadi. Bular: xo'jalik, sog'liqni saqlash va gigiyena, nafosat (estetik), turizm, ilmiy hamda tarbiyaviy maqsadga muvofiq foydalanish. Maqsadga muvofiq foydalanish deganda, tabiat boyliklaridan mamlakat yoki butun insoniyat manfaati yo'lida foydalanish tushuniladi. Bunda hozirgi va kelajak avlodning manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritish nazarda tutiladi. O'z taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga ilmiy asosda rejalashtira oladigan va tabiiy muvozanatni o'zgartirmasdan foydalana oladigan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishdan tabiatda ro'y beradigan jarayonlarning o'zaro bog'likligi va rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi bilimlar katta ahamiyatga ega. Busiz tabiiy jarayonlarga baho berish, ularni xisobga olish, tabiatga, tabiat komponentlariga ko'rsatilgan har qanday ta'sirning kelajakda qanday oqibatlariga olib kelishini oldindan bilish mumkin emas. Inson tabiatdan foydalanganda va unga ta'sir ko'rsatayotganda bilishi va faoliyatida amal qilish zarur bo'lgan, asosan, 5 qonuniyat mavjud.

Қонуниятлар:

tabiatdagi barcha komponent va elementlar o'zaro bir-birlari bilan bog'langan, o'zaro ta'sir etib, muayyan muvozanatda bo'lib, uyg'unlik hosil qilgan. Biron komponent yoki element o'zgarsa, butun tabiiy kompleksda o'zgarish ro'y beradi

tabiatda to'xtovsiz modda va energiyaning aylanma harakati ro'y berib turadi. Bu xayot asosi

tabiiy jarayonlarning rivojlanishida muayyan davriyliklar mavjud (sutkalik, yillik, 12 yillik, 33— 35 yillik va ko'p yillik)

zonallik

regionallik

ATROF MUHIT MUHOFAZASI

Insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri jamiyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish usullari mukammallasha borgan sari jadallashadi, tabiatdan, uning boyliklarini, qurilish va ishlab chiqarish texnikasi, aloqa vositalari yirik shaharlarni o'zgartirib, yirik vohalar, madaniy landshaftlar yaratishga, hosildor ekin hamda mevalar, mahsuldor chorva mollari yetishtirishga imkon beradi. Lekin ba'zan chuqur o'rganmasdan inson qudratiga ortiqcha baho berib, tabiatga ta'sir ko'rsatish tabiatni foydalanib bo'lmaydigan holatga, uning buzilishi va ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Bunday manzara insoniyatning butun tarixi mobaynida kuzatiladi. Lekin 19-asrgacha insonning tabiatdan foydalanish ko'lami uncha katta bo'lmagani uchun inson faoliyatining tabiatga ta'siri ham kamroq bo'lgan. 20-asrning 2-yarmida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi, qishloq xo'jaligi.da turli xil kimyoviy moddalarning ko'p qo'llanilishi, katta maydonlarda muttasil bir xil ekinlarning yetishtirilishi, transport vositalarining ortiqcha ko'payib ketishi, shaharlarning yiriklashib ketishi, tabiat muhofazasiga yetarlicha e'tibor berilmaganligi tabiiy muhitning buzilishiga, ayrim joylarning ifloslanib ketishiga sabab bo'ldi. Ayrim konchilik sanoati rnlarida tabiiy muhit juda buzilib ketgan.

XULOSA

Muxtasar aytganda, ona tabiatga mehr-muhabbat ruhida yondashish, oilada ekologik tarbiyani kuchaytirish, har bir insonda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hissini kuchaytirish zarur. Tabiat insonlarning barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy manbadir. Zero, ona tabiat ajdodlardan qolgan meros bo'libgina qolmay, balki kelajak avlodga beshikast qoldirishimiz zarur bo'lgan amallardan biri hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Atrof muhit muhofazasi tushunchasi nimani anglatadi?
2. Sizning fikringizbha nega atrof-muhitni asrash kerak?
3. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha boshqaruv va nazorat ishlari qanday shkilotlar vakolatiga yuklatilgan?
4. Daraxtlarni kesishga moratoriyni qo'llashdan qanday maqsad ko'zlangan?
5. Qadimda atrof muhit muhofazasi masalasiga ajdodlarimiz qanday munosabat bildirilgan?

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha tavsiya qilinadigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Баратов П. Табиатни муҳофаза қилиш. Т.: «Ўқитувчи», 1991, 254 б
2. Константинов В.М. Экологические основы природопользования / В.М. Константинов, Ю.Б. Челидзе. – М.: Академия, 2001. – 208с
3. Мустафоев С, Ортиқов С, Сувонов Р. Умумий экология. Т.:2006.

Qo'shimcha adabiyotlar :

4. Полищук О.Н. Основы экологии и природопользования: учебн. пособие. / О.Н. Полищук. - СПб.: Проспект Науки, 2011. – 144 с.
5. P.S.Sultonov.Экология va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. «MU SIQA » nashriyoti.2007,-240 b

Internet resurslari:

[1.http://www, Ziyonet. Uz/.](http://www.Ziyonet.Uz/)

[2. http:// www, guz. Ru/](http://www.guz.Ru/)

E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!!!



Muqqumov Abdug'ani
Muratovich



“Yerdan foydalanish”
kafedrası



+ 998 945811900



a.mukumov@tiame.uz



@Abdugani Muqumov